

## ONA TILI DARSLARIDA NUTQ USLUBLARINI O‘QITISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

**Ziyodova Gulruh Nuridin qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich talabasi*

[ziyodovaqulrux@gmail.com](mailto:ziyodovaqulrux@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili darslarida nutq uslublarini o‘rgatishda samarali metodik yondashuvlar, interaktiv o‘yinlar va zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ahamiyati batafsil tahlil qilingan. 11-sinf bitiruvchilarida o‘tkazilgan tajriba asosida o‘quvchilarning nutq uslublarini egallash darajasi foizlarda ko‘rsatilgan, natijalar jadval va grafiklar orqali yoritilgan. Maqola o‘quvchi faolligini oshirish, uslubiy tafakkurni rivojlantirish uchun metodik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

**Kalit so‘zlar:** nutq uslublari, metodika, tajriba, interaktiv usul, o‘quvchi faolligi, ta’lim texnologiyalari.

**Аннотация:** В статье подчеркивается необходимость развития письменной речи, актуальные проблемы и пути их решения. Выводы основаны на результатах эксперимента, проведенного среди школьников. Результаты были проанализированы и даны соответствующие инструкции.

**Ключевые слова:** стили речи, методика, опыт, интерактивный метод, активность учащихся, образовательные технологии.

**Abstract:** This article provides a detailed analysis of the importance of effective methodological approaches, interactive games and modern educational technologies in teaching speech styles in native language lessons. Based on the experiment conducted with graduates of grades 10-11, the level of students' mastery of speech styles is shown in percentages, the results are illustrated in tables and graphs. The article contains

methodological recommendations for increasing student activity and developing methodological thinking.

**Keywords:** speech styles, methodology, experiment, interactive method, student activity, educational technologies.

Zamonaviy ta'lim tizimida ona tili darslarining o'rni tobora ortib bormoqda. Til o'rgatish jarayonida nafaqat grammatik bilimlar, balki kommunikativ kompetensiyalar, tanqidiy va mustaqil fikr bildirish malakalari shakllantiriladi. Shu bois, nutq uslublarini o'rgatish o'quvchilarga turli vaziyatlarda aniq, lo'nda va uslubga mos fikr bildirish imkonini beradi. Ammo amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning uslubiy tafakkuri va matnlarni kontekstda anglash darajasi pastligicha qolmoqda. Bu esa nutq uslublarini metodik jihatdan to'g'ri o'rgatish zaruratini yanada oshiradi.

Nutq uslublarining o'ziga xos leksik, sintaktik va stilistik xususiyatlari mavjud bo'lib, ularni to'g'ri farqlay bilish va uslubga mos matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Ayniqsa, 11-sinf o'quvchilari uchun bu mavzu ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi.

Maktab ta'lim tizimida nutq uslublarini o'rgatish jarayonida ko'plab muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, nazariy bilimlarga ko'proq e'tibor qaratilishi amaliy ko'nikmalarining yetishmasligiga sabab bo'lyapti. Bu esa ularning matnni kontekstda anglash, uslubiy xatolardan xoli fikr bildirish va hayotiy vaziyatlarga mos yozma nutq tuzish qobiliyatini cheklaydi. Shuningdek, interaktiv metodlarning yetishmasligi, darsliklarning cheklanganligi va baholash mezonlarining noaniqligi ham bu jarayonni murakkablashtirmoqda. Shu bois, maktabda nutq uslublarini samarali metodik yondashuvlar asosida o'qitish dolzarb masalaga aylangan.

Ma'lumki, uslubiyat tilshunoslik bo'limlari orasida kam o'rganilgan. Nazariy jihatdan jahon tilshunosligi, rus tilshunosligi va turkologiyada nutq uslublarini tasniflash deyarli bir xil. Barchasida beshta uslub takrorlanadi: so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, badiiy uslub va publitsistik uslub. O'zbek tili stilistikasida ham ana shu tasnif asos qilib olingan. O'zbek tili uslubiyatini bir qator tilshunos olimlar, xususan, I.Rasulov,

H.Rustamov, A.Shomaqsudov, S.A.Karimovlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular yaratgan ilmiy ishlarida uslubshunoslik sohasining maqsad, vazifalari, til uslublari, nutq uslublari va vazifaviy uslublar kabi bir qator masalalar yoritilgan.

Nutq uslubi – bu fikr almashuv jarayonida qo‘llaniladigan vositalarning tanlovi bo‘lib, kishilar o‘zaro aloqa-munosabat jarayonida tilning fonetik, leksik, frazeologik va grammatik vositalaridan tanlab foydalanadilar. [1] “...Maftun etishning asosiy vositasi sifatida yozuvchi birinchi o‘ringa uslubni qo‘yadi.” [2] Demak, umumxalq tili vositalarining bunday tanlab ishlatilishi nutqning turlicha ko‘rinishlarining paydo bo‘lishiga olib keladi, bu esa “nutq uslublari” deb yuritiladi. (1-jadval)

| <b>Nutq uslubi</b>  | <b>Maqsadi</b>                  | <b>Qo‘llanish sohasi</b> |
|---------------------|---------------------------------|--------------------------|
| <b>So‘zlashuv</b>   | Erkin muloqot                   | Kundalik muloqot, suhbat |
| <b>Ilmiy</b>        | Ilmiy axborot yetkazish         | Dissertatsiya, referat   |
| <b>Rasmiy</b>       | Rasmiy munosabatlarni ifodalash | Farmon, ariza, bayonnoma |
| <b>Badiiy</b>       | Estetik ta’sir ko‘rsatish       | Roman, qissa, hikoya     |
| <b>Publitsistik</b> | Ijtimoiy-siyosiy masalalar      | Maqola, nutq, intervyu   |

Nutq uslublarini o'rgatishda ilg'or pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va kompetensiyaga asoslangan yondashuv muhim o'rin tutadi. Dars jarayonida o'quvchilarni faol fikrlashga undaydigan topshiriqlar, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan mashqlar, matn ustida ishlash metodikasi samaradorlikni oshiradi. Misol uchun, har bir uslubga oid matnlar berilib, ularning til vositalarini tahlil qilish, uslubga xos belgilarini ajratish, stilistik vositalarni aniqlash kabi topshiriqlar o'quvchining kuzatuvchanligi va tahliliy fikrlashini rivojlantiradi.

Quyida 11-sinf uchun o'tkazilgan mashg'ulotdan namunaviy topshiriqlar:

(2-jadval)

| Mashg'ulot turi         | Tavsifi                                                             |
|-------------------------|---------------------------------------------------------------------|
| Matnni uslubga ajratish | Berilgan 3 matndan har birining uslubini aniqlash va asoslab berish |
| Rasmiy nutq tuzish      | “Ariza yozing” – uslubiy normalarga rioya qilgan holatda            |
| Ilmiy nutq tahlili      | O'quv qo'llanmadagi parcha asosida ilmiy uslub belgilarini topish   |
| So'zlashuv nutqi        | Erkin suhbat ssenariysi yozish (ikki do'st o'rtasidagi dialog)      |
| Publitsistik uslub      | “Atrof-muhit muhofazasi” mavzusida maqola yozish                    |

Dars jarayonida quyidagi metodlarni qo'llash tavsiya etiladi:

**“Matn tahlili”** metodi: turli uslubda yozilgan matnlar ustida ishlash, ularning uslubiy belgilarini ajratish orqali uslubiy farqlarni tushuntirish.

**“Stilistik me’yorlar”** mashqi: uslubga xos leksik, grammatik va sintaktik vositalarni tahlil qilish.

**“Uslubni top”** o’yini: matnlardagi belgilar asosida uslubni topish va izohlash.

**“Erkin nutq”** topshiriqlari: mavzuga doir mustaqil yozma nutq tuzish, nutq uslublari orasidagi o‘zaro farqlarni qo‘llab ko‘rsatish.

Shuningdek, o‘yinli metodlarni tashkillashtirsa bo‘ladi. Masalan, **“To‘g‘ri joylashtir”** o’yini orqali o‘quvchilar matnlarni uslubiga qarab ajratadi. Bu esa bilimni mustahkamlashda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning stilistik tafakkurini rivojlantiradi, tilga ongli munosabatni shakllantiradi.

Yangi avlod “Ona tili” darsliklarida nutq uslublariga oid topshiriq va mashqlarning berilishi tahsinga sazovor. Ammo bu topshiriqlar o‘quvchilarda uslublarni to‘liq o‘zlashtirishga yetarli emasligi amaliy tajribada yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Uslublar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni bir-biridan farqlay olish, konkret matnlarni tahlil qilish va uslubga mos matn yarata olish – bu kabi jarayonlar o‘qituvchidan metodik bilim, nazariy tayyorgarlik va tajriba talab etadi.

Shu asosda Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 281-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 11-“A” sinf o‘quvchilari bilan nutq uslublarini o‘rgatishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari olib borildi. [3] Dastlabki bosqichda o‘quvchilarning uslublar haqidagi tushunchasi yuzaki ekani, ular matnlarning uslubiy xususiyatlarini anglab yetishda qiynalishayotgani kuzatildi. Bu holat ularning yozgan fikrlarida, og‘zaki izohlashlarida va hatto test savollariga bergan javoblarida ham sezildi.

Tajriba quyidagicha tashkil etildi:

Hudud: Toshkent shahri, 281-sonli maktab

Ishtirokchilar soni: 22 nafar

Ishtirokchilar yoshi: 18 yosh


Mavzu: “Qonunlar nima uchun kerak?”

Tajriba maqsadi: O‘quvchilarda uslublarni farqlash, uslubga mos matn tuza olish, uslubiy belgilarga ko‘ra tahlil qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish

Davr: 2025-yil, IV chorak

Dastlabki bosqichda o‘quvchilarga mazkur mavzu asosida matnlar eshittirildi, turli uslubdagi (ilmiy, publitsistik, rasmiy, badiiy) parcha va gaplar tarqatildi, hamda ularni aniqlash, tahlil qilish, uslubini izohlash topshiriqlari bajarildi. So‘ngra o‘quvchilarga har bir uslubga xos matn yozish topshirig‘i berildi. (1-diagramma)

O‘quvchilarning uslubni farqlash darajasi:



Natijalarga ko‘ra, o‘quvchilarning ko‘pchiligi badiiy va og‘zaki nutq uslublarini nisbatan oson ajrata oldi. Biroq ilmiy va rasmiy uslub bilan ishlashda ancha qiynaldi, bu esa ular orasidagi farqlarni tushuntirish, ko‘rgazmali vositalardan foydalanish, uslublarni taqqoslab o‘rganish zaruratini ko‘rsatdi.

(3-jadval)


Nutq uslublarini ajrata olish holati:

|                          |                                 |
|--------------------------|---------------------------------|
| <b>So‘zlashuv uslubi</b> | <b>95.5% (21 ta o‘quvchida)</b> |
| <b>Badiiy uslub</b>      | <b>77.3% (17 ta o‘quvchida)</b> |
| <b>Ilmiy uslub</b>       | <b>40% (9 ta o‘quvchida)</b>    |

|                           |                                 |
|---------------------------|---------------------------------|
| <b>Rasmiy uslub</b>       | <b>45,5% (10 ta o‘quvchida)</b> |
| <b>Publitsistik uslub</b> | <b>22,7% (5 ta o‘quvchida)</b>  |

Uslubga xos matn yaratish darajasi:

|                           |                                |
|---------------------------|--------------------------------|
| <b>So‘zlashuv uslubi</b>  | <b>36,4% (8 ta o‘quvchida)</b> |
| <b>Badiiy uslub</b>       | <b>27,3% (6 ta o‘quvchida)</b> |
| <b>Ilmiy uslub</b>        | <b>9,1% (2 ta o‘quvchida)</b>  |
| <b>Rasmiy uslub</b>       | <b>9,1% (2 ta o‘quvchida)</b>  |
| <b>Publitsistik uslub</b> | <b>18,2% (4 ta o‘quvchida)</b> |
| <b>Hech biri</b>          | <b>13,6% (3 ta o‘quvchida)</b> |



Grafik ma'lumotlar tajriba mashg'ulotlaridan oldin va so'ng o'quvchilarning nutq uslublarini ajrata olish ko'nikmalarida sezilarli ijobiy o'sish kuzatilganini ko'rsatadi. So'zlashuv, badiiy va ilmiy uslublarni avvaldan ham yaxshi tushungan bo'lsalar-da, tajriba

natijasida bu ko'rsatkichlar to'liq mukammallikka yaqinlashdi (ilmiy va so'zlashuvda 100%). (2-diagramma)

Eng muhim o'zgarishlar publitsistik va rasmiy uslublarda kuzatildi. Tajribadan oldin publitsistik uslubni ajrata olganlar 22.7% bo'lgan bo'lsa, tajribadan so'ng bu ko'rsatkich 68.2% ga yetdi. Rasmiy uslubda esa 40.9% dan 72.7% gacha o'sish kuzatildi. Bu esa, darslarda ushbu ikki uslubga oid mashg'ulotlar, real hayotiy matnlar va rolli o'yinlar asosida olib borilgan faol yondashuvlarning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Ona tili darslarida nutq uslublarini o'rgatish masalasi ta'lim tizimida nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg'unligini taqozo etmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, o'quvchilarning uslubiy tafakkurini shakllantirish, matnni kontekstual anglash va uslubiy mezonlarga asoslanib tahlil qilish ko'nikmalari sust rivojlangan. Bu holat metodik ta'minotning takomillashtirilishini, darslik va amaliy topshiriqlarning sifat jihatidan yangilanishini taqozo etadi.

Tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, nutq uslublarini o'zlashtirishda faqat nazariy bilimlar emas, balki individual yondashuv, ijodiy-analitik topshiriqlar, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan matn tahlili orqali o'quvchining uslubiy ongini shakllantirish mumkin. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilarida bu yo'nalish uzviylikini ta'minlash ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bois, ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanmalar, interaktiv dars ishlanmalari, mavzuga oid amaliy mashqlar tizimi ishlab chiqilishi dolzarb hisoblanadi. Chunki uslublarni o'rgatish nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jihatidan ham ahamiyatlidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Iminov M., Nu'monov T., Boboxonova D. O'zbek tili uslubiyati masalalari. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2007. – 240b.
2. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1969. – 256b
3. Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 96b.



4. Jo‘rayev O. O‘zbek tilining uslubiy tizimi va ularning funksional xususiyatlari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2019. – 212b.

5. Normurodov A. Tilshunoslikka kirish va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 196b.